



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI**

**“KOMPYUTER INJINIRINGI” FAKULTETI
DASTURIY INJINIRING KAFEDRASI
“C++ DA DASTURLASH”
FANIDAN**

Kurs ishi

Bajardi:

**614-14 guruh
QAYUMOV B**

Qabul qildi:

MUSAYEV X

Farg'ona 2015

Mavzu: Uy kutubxonasida kitoblarni ro'yxatga olish tizimini yaratish

Mundarija:

I. Kirish.

II. Nazariy qism

2.1 MS Access dasturi va ma'lumotlar bazasi haqida tushuncha

2.2 C++ dasturlash tili va uning qisqacha tarixi

2.3 C++ Builder asoslari

III. Amaliy qism

3.1 MS Access dasturida ma'lumotlar bazasini tuzish

3.2 C++ Builder asosida dasturiy qismni yaratish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilova

“Biz tezkor texnikaviy taraqqiyot, shiddat bilan rivojlanayotgan va muntazam yangilanayotgan zamonaviy yuqori texnologiyalar, axborot-kompyuter tizimlari orasida yashayotganligimizni unutmasligimiz kerak”
Islom Karimov.

I. Kirish.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi qabul qilingach yoshlarga bu sohalarda ko'plab imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtimizning barcha sohalari qatorida axborot texnologiyalari sohasi ham tubdan o'zgarib, rivojlanishga yuz tutdi. Hozirgi kunda yurtimizda biz yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Hozirgi texnika va texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonida inson faktoriga bo'lgan talab kundan kunga kamayib bormoqda. Buning asosiy sababi — zamonaviy texnologiyalarning inson og'irini yengillatayotganligida.

Hozirgi kunda hayotimizning barcha jabhalariga texnik va texnologik qurilmalar, avtomatlashgan tizimlar, kompyuter texnologiyalari kirib kelib ulgirdi. Kimdir bu texnika va texnologiyalardan unumli vasamarali oydalanmoqda, unga yanada qo'shimcha yangilik va qo'shimchalar kiritmoqda, aksincha yana kimlardir ularni boricha o'z holatida ishlatmoqda.

XXI asr — “Axborot asri”. Ushbu asrda texnika va texnologiyalar shu darajada rivojlanib kettiki, hatto inson aqli bovar qilmas dajaga yetib ulgirdi.

Hozirgi kunda juda ham ko'plab yordamchi dasturlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mavjud. Bularning ichida foydalanuvchiga yordam beradigan va bevosita o'zining dastur yaratishiga imkon beruvchi dasturlarni ham ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mavjud. Keyingi yillarda mamlakatimiz ilm-fani ham axborotlashtirishning nazariy asoslariga katta hissa qo'shib kelmoqda, shu bilan birgalikda, hodisalar, jarayonlarni yagona axborot asosida tadqiq etishning ilmiy yo'nalishlarini tahlil va sintez qilish natijasi bo'lgan fan-informatikaning vujudga kelishiga boshlang'ich nuqta qo'yildi. Axborot, energiya, vazn, bo'shliq va vaqtni bir butun holda batafsil o'rganish hozirgi vaqtda inson hayotining barcha jabhalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning birinchi bosqichi yakunlanib, ikkinchi - sifat bosqichiga o'tildi. O'tgan davrda yaratilgan me'yoriy-xuquqiy hujjatlar fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga asos bo'lib, o'quv jarayonini sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy va iqtisodiy masalalarni hal qilish, uzloqsiz ta'lim tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning ishlab chiqishni talab qiladi.

Axborot jamiyatni rivojlantiruvchi va uning tarakkiyotiga asos buluvchi muxim vosita xisoblanadi. Shu kabi axborot insoniyat tarixida eng muxim iqtisodiy kursatkichlardan biri bulsa, jamiyatni kompyuterlashtirish esa iqtisodiyotni tarkibiy jixatdan qayta qurishda asosiy xarakatlantiruvchi kuchdir. Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bilan ta'minlash insonlarning turli-tuman ma'lumotlarga bo'lgan extiyojini qondirish muxim o'rin tutadi. Inson axborot olami ichra yasharkan, voqea-xodisalar va jarayonlarning bir-biriga aloqadorligini, o'zaro munosabati va mohiyatini taxlil etish, o'z xayotidan kelib chiqayotgan murakkab savollarga ilmiy javob topish maksadida ko'pdan-ko'p dalil va raqamlarga murojaat qiladi. Axborot tufayli nazariya amaliyot bilan birikadi. Amaliyot nazariyasiz, nazariya amaliyotsiz mavjud xam bulmaydi, rivojlanmaydi xam.

II. Nazariy qism

Kursh ishimning asosiy maqsadi ham Mustaqil O'zbekiston yoshlariga dasturlash tilining keng imkoniyatlarini ko'rsatib berishdir. Mening ushbu kurs ishim C++ dasturlash tilida yaratiladi. C++ dasturlash tili C tiliga asoslangan. C esa o'z navbatida B va BCPL tillaridan kelib chiqqan. BCPL 1967 yilda Martin Richards tomonidan tuzilgan va operatsion sistemalarni yozish uchun mo'ljallangan edi. Ken Thompson o'zining B tilida BCPL ning ko'p hossalarni kiritgan va B da UNIX operatsion sistemasining birinchi versiyalarini yozgan. BCPL ham, B ham tipsiz til bo'lgan. Yani o'zgaruvchilarning ma'lum bir tipi bo'lmagan – har bir o'zgaruvchi kompyuter hotirasida faqat bir bayt yer egallagan. O'zgaruvchini qanday sifatda ishlatish esa, yani butun sonmi, kasrli sonmi yoki harfdekmi, dasturchi vazifasi bo'lgan.

C tilini Dennis Ritchie B dan keltirib chiqardi va uni 1972 yili ilk bor Bell Laboratoriyasida, DEC PDP-11 kompyuterida qo'lladi. C o'zidan oldingi B va BCPL tillarining juda ko'p muhim tomonlarini o'z ichiga olish bilan bir qatorda o'zgaruvchilarni tiplashtirdi va bir qator boshqa yangiliklarni kiritdi. Boshlanishda C asosan UNIX sistemalarida keng tarqaldi. Hozirda operatsion sistemalarning asosiy qismi C/C++ da yozilmoqda. C mashina arhitekturasiga bog'langan tildir. Lekin yahshi rejalashtirish orqali dasturlarni turli kompyuter platformalarida ishlaydigan qilsa bo'ladi.

1983 yilda, C tili keng tarqalganligi sababli, uni standartlash harakati boshlandi. Buning uchun Amerika Milliy Standartlar Komiteti (ANSI) qoshida X3J11 texnik komitet tuzildi. Va 1989 yilda ushbu standart qabul qilindi. Standartni dunyo bo'yicha keng tarqatish maqsadida 1990 yilda ANSI va Dunyo Standartlar Tashkiloti (ISO) hamkorlikda C ning ANSI/ISO 9899:1990 standartini qabul qilishdi. Shu sababli C da yozilgan dasturlar kam miqdordagi o'zgarishlar yoki umuman o'zgarishlarsiz juda ko'p kompyuter platformalarida ishlaydi.

C++ 1980 yillar boshida Bjarne Stroustrup tomonidan C ga asoslangan tarzda tuzildi. C++ juda ko'p qo'shimchalarni o'z ichiga olgan, lekin eng asosiysi u ob'ektlar bilan dasturlashga imkon beradi.

Dasturlarni tez va sifatli yozish hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoda. Buni ta'minlash uchun ob'ektli dasturlash g'oyasi ilgari surildi. Huddi 70-chi yillar boshida strukturali dasturlash kabi, programmalarni hayotdagi jismlarni modellashtiruvchi ob'ektlar orqali tuzish dasturlash sohasida inqilob qildi.

C++ dan tashqari boshqa ko'p ob'ektli dasturlashga yo'naltirilgan tillar paydo bo'ldi. Shulardan eng ko'zga tashlanadigani Xerox ning Palo Altoda joylashgan ilmiy-qidiruv markazida (PARC) tuzilgan Smalltalk dasturlash tilidir. Smalltalk da hamma narsa ob'ektlarga asoslangan. C++ esa gibrid tildir. Unda C ga o'hshab strukturali dasturlash yoki yangicha, ob'ektlar bilan dasturlash mumkin. Yangicha deyishimiz ham nisbiydir. Ob'ektli dasturlash falsafasi paydo bo'lganiga ham yigirma yildan oshayapti.

C++ funksiya va ob'ektlarning juda boy kutubhonasiga ega. Yani C++ da dasturlashni o'rganish ikki qismga bo'linadi. Birinchisi bu C++ ni o'zini o'rganish, ikkinchisi esa C++ ning standart kutubhonasidagi tayyor ob'ekt/funksiyalarni qo'llashni o'rganishdir.

2.1 MS Access dasturi va ma'lumotlar bazasi haqida tushuncha

Sohalar ma'lumotlar bazasi – bu katta tashkilotlar axborot tizimlari hisoblanib, ular o'zida bir necha o'nlab MBni saqlaydai. Bu MB har xil bo'limlarda joylashgan o'zaro bog'langan kompyuterlarda joylashgan bo'ladi.

Amaliy ma'lumotlar bazasi – bu bir yoki bir necha amaliy masalalarni echish uchun zarur bo'lgan berilganlarni birlashtiruvchi ma'lumotlar bazasidir (masalan, moliya, talabalar, o'qituvchilar va boshqalar haqidagi berilganlar bo'lishi mumkin).

Sohalar ma'lumotlar bazasi har qanday joriy va kelgusi ilovalardan foydalanishni ta'minlab beradi. Uning ma'lumotlar elementlari amaliy ma'lumotlar elementlari to'plami bazasiga ham kiradi.

MBni loyihalashtirishning joriy va oldindan ko'rilgan ilovalarga asoslanib yuqori effektiv axborot tizimlarini yaratishni yanada tezlashtirish mumkin. Shu sabab amaliy loyihalash Mbni ishlab chiqaruvchilarni o'ziga jalb etmoqda. Bunday informatsion tizimlarda ilovalar sonining oshib borishi amaliy MB sonini tez o'stirib yubormoqda.

Shunday qilib har bir qarab chiqilgan loyihalashga bo'lgan usul har xil yo'nalishdagi loyihalashtirish natijasiga ta'sirini ko'rsatadi.

Maqsadga erishish uchun loyihalash metadalogiyasini tashkil etishda sohali va amaliy usullarni qo'llash effektivligiga bog'liqdir. Umuman olganda sohali usul boshlang'ich informatsion strukturani qurish uchun ishlatiladi, amaliy usul ese uni rivojlantirish maqsadida ma'lumotlarni qayta ishlash effektivligini oshirishda ishlatiladi.

Axborot tizimlarni loyihalashda bu tizimlarni to'liq analiz qilish va unga bo'lgan foydalanuvchilar talablarini aniqlashga olib keladi. Ma'lumotlarni yig'ish mohiyatni o'rganish bilan boshlanadi.

MBni loyihalashning asosiy maqsadi – bu saqlanadigan ma'lumotlarni kamaytirish, ishlatiladigan xotira hajmini tejash va ko'p qaytariladigan operatsiyalarni kamaytirishdir.

Loyihalash protsedurasi

Informatsion tizimlarni loyihalash jarayoni etarlicha murakkab masala . U ma'lumotlarning infomantiqiy modelini tuzishdan, ya'ni mohiyatni identifikatsiyalash boshlanadi. Keyin loyihalashning datamantiqiy model protsedurasining quyidagi qadamlarni bajarish kerak bo'ladi.

1.Ma'lumotlar bazasi jadvalining (asosiy jadval) har bir bog'liqsiz mohiyatini (sterjen) tasvirlash va bu asosiy (bazaviy) jadval birinchi kalitini spetsifikalash lozim.

2.Har bir assotsiyani ("ko'p-ko'pga yoki ko'pdan ko'pga va boshqa ko'rinishdagi aloqalar) asos jadval ko'rinishida tasvirlash kerak . Bu jadvalda assotsiya a'zolarini mosligini aniqlash uchun tashqi kalitlarni tadqiq qilish kerak

3.Har bir xususiyatni tashqi kalit bilan asosiy jadval sifatida tasvirlash lozim. Jadvalning tashqi kalitiga va uning boshlang'ich kalitiga qo'yilgan cheklashlarni spetsifikatsiyalash lozim.

4.Avvalgi punktlarda qaralgan har bir belgilanishlarni tashqi kalit bilan asos jadval sifatida tasvirlash lozim. Shu turdagi har qanday tashqi kalitlarni cheklashlarni spetsifikatsiyalash lozim.

5.Har bir xususiyatni asos jadvaldagi maydon ko'rinishida tasvirlash kerak, qaysiki shu xususiyat bilan aniqlanuvchi mohiyatni ochib beradi.

6.Normallashtirishning qandaydir printsiplarini bevosita buzushning oldini olish maqsadida, normallashtirish protsedurasini bajarish lozim.

7.Normallashtirish jarayonida qandaydir jadvallarni bo'laklash jarayoni sodir bo'lsa, ma'lumotlar bazasining infomantiqiy modelini takomillashtirish lozim va sanab o'tilgan qadamlarni takrorlash kerak.

8.Loyihalashtirilayotgan ma'lumotlar bazasi yaxlitligiga qo'yiladigan cheklanishlarni ko'rsatish va hosil qilingan jadval va maydonlarni qisqacha tasvirlab berish kerak (agar lozim bo'lsa).

Formalar foydalanuvchiga Ma'lumotlarga qulay kirish taominlovchi asosiy Ob'ektdir. Formalarni ishlab chiqarishni asosiy instrumenti -Konstruktordir.

Elementlar paneli

Panel elementov (Toolbox) (Elementlar paneli) Konstruktor rejimida formaga boshqaruv elementlarini qo'shuvchi asosiy asbobdir.




Panel elementov ekranda ko'rinishi uchta yo'llardan biri bilan bajariladi:

Vid, Panel elementov buyrugini tanlang;

Konstruktor form(Form Design) Instrumentlar panelidagi Panel elementov(Toolbox) tugmasini bosing;

Sichqonchaning o'ng tugmasini istalgan instrumentlar panelida bosing va menyudan Panel elementov(Toolbox) buyrugini tanlang.

Eng ko'p ishlatiladigan boshqaruv elementlari panelning uzida joylashgan. Agar elementlar panelining pastgi burchagidagi Drugie elementq (More Controls)(o'zga elementlar) tugmasi bosilsa, qolgan elementlar qo'shimcha ro'yxat sifatida aks ettiriladi.



Elementlar panelining yuqoridagi qismida ikkita maxsus tugmalari: Vqbor obhektov(Select Objecs) va Mastera (Control Wizards) joylashgan. Vqbor obhektov tugmasi bosilgan xolati elementlarni ajratish rejimi yokilganligi, yaoni

formada sichqoncha tugmasini bosilishiga javoban mos keluvchi boshqaruv elementlari yoki ko'rsatilgan sohaga tushib qolgan boshqa Ob'ektni ajralib chiqishidir. Bu rejim ko'zda tutilgan bo'yicha yokilgan. Lyokin, agar elementlar panelidagi boshqaruv elementini yaratishga mo'ljallangan boshqa tugma bosilsa, Ob'ekt tanlash tugmasi avtomatik ravishda tamomlanadi. Agar element yaratishni to'xtatsangiz va Ob'ektlarni ajratish rejimiga qaytishni xoxlasangiz, uni yana bosishga to'g'ri keladi.

Master tugmasini bosish bilan, boshqaruv elementini formaga joylashtirishda mos keluvchi master ishga tushiriladi. Bosilmagan tugmada master ishga tushirilmaydi va elementlarni kulda to'g'rilash kerak bo'ladi. Elementlar masterlari ro'yxatli maydoncha, buyruqli tugmalar, elementlar tanlovi guruhiga uxshash aniq sozlashni talab etadigan boshqaruv elementlarini yaratishga yordam beradi. Deyarli hamma shunday boshqaruv elementlarida o'zining masteri mavjud bo'ladi. Elementlar masterini ACCESSni urganish uchun ishlashda boshlanich boskichlarida foydalanish qanday qulay bo'lsa, keyingi ishlarda ham shunday qulay, chunki ular elementlarni standart sozlash qiyin operatsiyasini avtomatlashtirib, uni qulay dialog sifatida taklif etadi.

Elementlar masteridan tashqari boshqaruv elementlarini sozlash bo'yicha ishlarni elementlarning notrivial qiymati xususiyatini ko'rishda yordam beruvchi maxsus masterlar osonlashtiradi. Ularni kuruvchilar deyishadi. Misol uchun, Postroitel zaprosov (Query Builder) ro'yxatlar va ro'yxatli maydonchalar uchun qatorlar manbalarini aniqlovchi SQL qo'llanmasini yaratishga yordam beradi. Postroitel vqrajeniy (Expression Builder) hisoblanadigan boshqaruv elementlar uchun sintaksis to'g'ri ifodalarni yaratishga yordam beradi.

Elementlar panelida joylashgan asosiy tugmalar turli tipdagi boshqaruv elementlarni yaratishga muljallangan. Boshqaruv elementlari tipining nomi sichqonchaning ko'rsatgichini boshqaruv panelidagi mos tugmaga olib borilganda namoen bo'ladi.

Boshqaruv elementlarining tarkib tiplari bo'yicha ko'rinishlari

ACCESSda boshqaruv elementlarini, ularni Ma'lumotlar bilan to'ldirishiga karab uchta ko'rinishi mavjud:

Boshqaruv elementlarini birlashishi tayanch jadval maydonlari bilan boliq, yaoni forma uchun Ma'lumotlar manbai bo'ladigan jadvallar. Agar Ma'lumotlar manbai so'rov bo'lsa, u xolda boshqaruv elementlari turli jadvallarning maydonlari bilan bolanishi mumkin. Birlashgan elementlarida jadvalning maydoni bilan bolangan Ma'lumotlar aks etadi va bu Ma'lumotlar o'zgarsa, jadvalning maydoni qiymati ham mos ravishda yangilanadi. Birlashgan elementlarda ACCESS da mavjud barcha Ma'lumotlar aks etadi, shu jumladan OLEning Ob'ektlari va giperko'rsatkich xam.

Mustaqil boshqaruv elementlari jadvallar bilan boliq emas. Ular Ma'lumotlarni manbada bevosita nashr etmaslik uchun foydalanadigan informatsiyani kiritish, yoki formaning uzida saklanadigan OLE Ob'ektlarni aks ettirish uchun muljallangan. Bundan tashqari erkin elementlarga qandaydir Ma'lumotlar bilan boliq bo'lmagan elementlar ham kiradi.

Hisoblanadigan boshqaruv elementlari- Bu shunday elementlarki, qaysiki ularni qiymati boshqa elementlar qiymati asosida hisoblanadi. Bunday elementlarning manbai bo'lib Funksiya yoki ifoda xizmat bo'ladi.

Nadpis (Yozuv) boshqaruv elementi

Nadpis elementi formada tekst joylashtirish uchun ishlatiladi:maydonlar sarlavhasi, formalar sarlavhalari, turli tushuntirish yozuvlari.

Birlashgan YOzuvlar- mustaqil mavjud bo'lmay, boshqa boshqaruv elementlari bilan boliq va ularga sarlavha bo'lib xizmat qiladi. Bunday elementlarga tekst maydoni, ro'yxatli maydonlar, bayroqchalar va boshqalar misol bo'ladi. Bu tipdagi yozuvlar mos ravishdagi boshqaruv elementlari joylashtirilaetganda avtomatik ravishda yaratiladi va unga qo'shiladi.

Tablitsa rejimida aks etilgan formalarda birlashgan yozuvlar ustunlarning sarlavhasiga aylanadi. instrumentlar panelidagi Nadpis tugmasi yordamida yaratiladigan yozuvlar mustaqil hisoblanib, hech qanday boshqaruv elementlari bilan boliq emas. Bu yozuvlar foydalanuvchiga yordam bo'lib xizmat qiladi,

lyokin agar forma Jadval rejimida kiritilsa, ekranda aks etmaydi. Mustaqil yozuvini kerak bo'lganda boshqaruv elementiga qo'shish mumkin:

1. Boshqa elementga qo'shib olish uchun Nadpis boshqaruv elementini ajratib oling.

2. Instrumenlar panelidagi Vqrezat tugmasini bosing (yoki <Strl>+<V> klavishi kombinatsiyasini bosing)

3. YOzuvni qo'shib qo'yish kerak bo'lgan boshqaruv elementini ajratib oling.

4. Instrumentlar panelidagi Vstavit tugmasini bosing(yoki <Strl>+<X> klavishi kombinatsiyasini bosing).

YOzuv boshqaruv elementiga qo'shiladi.

YOzuv matni Podpis xususiyati bilan aniqlanadi, uni yozuv xususiyatlari dialog oynasida yoki formada ajratilgan yozuvni bosib, bevosita yozuvni uzida o'zgartirish mumkin. ham mustaqil, ham qo'shilgan yozuv matni VBA dasturlari yoki makroslar yordamida qo'llanmalar bilan ishlaetganda dinamik o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari, formada yangi yozuvlarni chiqarish mumkin yoki aniq shart bajarilaetganda mavjudlarni berkitish mumkin.

2.2 C++ dasturlash tili va uning qisqacha tarixi

Birinchi elektron hisoblash mashinalari paydo bo'lishi bilan dasturlash tillari evolyusiyasi boshlanadi. Dastlabki kompyuterlar ikkinchi jahon urushi vaqtida artilleriya snaryadlarining harakat traektoriyasini hisob-kitob qilish maqsadida qurilgan edi. Oldin dasturchilar eng sodda mashina tilini o'zida ifodalovchi kompyuter komandalari bilan ishlaganlar. Bu komandalar nol va birlardan tashkil topgan uzun qatorlardan iborat bo'lar edi. Keyinchalik, insonlar uchun tushunarli bo'lgan mashina komandalarini o'zida saqlovchi (masalan, ADD va MOV komandalari) assembler tili yaratildi.

SHu vaqtlarda BASIC va COBOL singari yuqori sathli tillar ham paydo bo'ldiki, bu tillar tufayli so'z va gaplarning mantiqiy konstruksiyasidan foydalanib dasturlash imkoniyati yaratildi. Bu komandalarni mashina tiliga interpretatorlar va kompilyatorlar ko'chirar edi. Interpretator dasturni o'qish jarayonida uning komandalarini ketma - ket mashina tiliga o'tkazadi. Kompilyator esa yaxlit programma kodini biror bir oraliq forma - ob'ekt fayliga o'tkazadi. Bu bosqich kompilyasiya bosqichi deyiladi. Bundan so'ng kompilyator ob'ektlil faylni bajariluvchi faylga aylantiradigan kompanovka dasturini chaqiradi.

Interpretatorlar bilan ishlash osonroq, chunki dastur komandalari qanday ketma - ketlikda yozilgan bo'lsa shu tarzda bajariladi. Bu esa dastur bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi. Kompilyator esa kompilyasiya va kompanovka kabi qo'shimcha bosqichlardan iborat bo'lganligi uchun ulardan hosil bo'ladigan bajariluvchi faylni tahlil qilish va o'zgartirish imkoniyati mavjud emas. Faqatgina kompilyasiya qilingan fayl tezroq bajariladi, chunki bundagi komandalar kompilyasiya jarayonida mashina tiliga o'tkazilgan bo'ladi.

C++ kabi kompilyasiya qiluvchi dasturlash tillarini yana bir afzalligi hosil bo'lgan dastur kompyuterda kompilyatorsiz ham bajarilaveradi.

Interpretatsiya qiluvchi tillarda esa tayyor dasturni ishlatish uchun albatta mos interpretator dasturi talab qilinadi.

C++ tili ob'ektga mo'ljallangan dasturlash prinsiplarini qo'llab quvvatlaydi.

Bu prinsiplar quyidagilardir:

- Inkapsulyasiya
- Merosxo'rlik
- Polimorfizm

Inkapsulyasiya.

Agarda muhandis ishlab chiqarish jarayonida rezistorni qo'llasa, u buni yangidan ixtiro qilmaydi, omborga (magazinga) borib mos parametrlarga muvofiq kerakli detalni tanlaydi. Bu holda muhandis joriy rezistor qanday tuzilganligiga e'tiborini qaratmaydi, rezistor faqatgina zavod xarakteristikalariga muvofiq ishlasa etarlidir. Aynan shu tashqi konstruksiyada qo'llaniladigan yashirinlik yoki ob'ektni yashirinligi yoki avtonomligi xossasi inkapsulyasiya deyiladi. Inkapsulyasiya yordamida berilganlarni yashirish ta'minlanadi. Bu juda yaxshi xarakteristika bo'lib foydalanuvchi o'zi ishlatayotgan ob'ektning ichki ishlari haqida umuman o'ylamaydi.

Merosxo'rlik

C++ tili merosxo'rlikni himoya qiladi. Bu yangi berilganlar tipi (sinf), oldindan bo'lgan sinfni kengaytirishdan hosil bo'ladi. Bunda yangi sinf oldingi sinfning merosxo'ri deb ataladi.

Polimorfizm.

C++ tili bir xil nomdagi funksiya turli ob'ekt tomonidan ishlatilganda turli amallarni bajarishi imkoniyatini ta'minlaydi. Bu funksiya va sinfning polimorfligi deb nomlanadi. Poli – ko'p, morfe – shakl degan ma'noni anglatadi. Polimorfizm – bu shaklning ko'p xilligidir.

2.3 C++ Builder asoslari

Ishlab chiqishning integratsiyalashgan muhiti komponentalar palitrasini birlashtiradi. Shakllar muharriri, kod muharriri, obyektlar noziri, obyektlar xazinasini bular hammasi kod va zaxiralar ustidan to'liq nazoratni ta'minlovchi dasturiy ilovalarni tez ishlab chiqish instrumentlari.

Komponentalar palitrasi ilovalarni qurishda taklif qilinadigan 100 dan ortiq takroran qo'llanadigan komponentalardan iborat. Shakllar muharriri dasturning foydalanuvchi bilan interfeysini yaratish uchun mo'ljallangan. Kod muharriri dastur matnini, xususan, voqealarga ishlov berish funksiyalarini yozish uchun mo'ljallangan. Obyektlar noziri qotib qolgan chigal dasturlash zaruratisiz obyektlar usuliyatlarini vizual o'rnatish imkonini beradi hamda shunday voqealarni o'z ichiga oladiki, bu voqealarni ularning paydo bo'lishiga nisbatan obyektlar reaksiyasi kodlari bilan bog'lash mumkin bo'ladi.

Obyektlar Xazinasini ma'lumotlarning shakl va modullari kabi obyektlarga ega bo'lib, ular ishlab chiqishda muvaqqat sarflarni kamaytirish maqsadida ko'plab ilovalar bilan bo'linadi. C++ Builder ilovalarni qurishning vizual metodikasini Komponentalar palitrasidan kerakli boshqarish elementlarini tanlab olish vositasida joriy etadi. Har bir komponenta bilan ushbu komponenta turini va xulq-atvorini o'zgartiradigan xususiyatlar bog'liq bo'ladi. C++ Builder 32 razryadli takomillashtirilgan Vizual komponentalar kutubxonasi VCL (Visual Component Library) bilan birgalikda yetkazib beriladi. Bu kutubxona eng murakkab ilovalarni qurish uchun mo'ljallangan 100 dan ortiq takroran qo'llanadigan komponentalardan iborat. Kutubxonaning asosiy komponentalari

Palitralar komponentalarining instrumental panelida berilgan. Komponentalar belgilari dasturingiz shakliga olib o'tiladi. Kutubxona Windows va Windows 95 operatsiya tizimlaridagi Foydalanuvchi Grafik Interfeysi standart interfeys obyektlarining to'liq inkapsulatsiyalanishini o'z ichiga oladi. Ular orasida, ixtisoslashgan komponentalar bilan bir qatorda, relyatsion ma'lumotlar bazasini

boshqarish uchun mo'ljallangan komponentalar alohida o'rin egallaydi. Ishonchli va samarali dasturlarni yaratishda C++Builder obyektga mo'ljallangan dasturlash (OMD) imkoniyatlaridan to'liq foydalanadi.

C++Builder bosh xususiyati avvalambor uning dasturni vizual ishlash jarayonida nafaqat tayyor komponentalardan foydalanish, balki yangi komponentalarni yaratish qobiliyatida ham namoyon bo'ladi. Yangi komponentalar, dastlabki komponentalar kabi, sodda bo'lishi mumkin, bunda ularning funksional imkoniyatlari biroz kengaytirilgan yoki o'zining mutlaqo o'ziga xos ko'rinishi, xulq-atvori va kodining mazmuni bilan farqlanadigan bo'ladi. Komponentalarning yaratilishi OMD ning vorislik mexanizmiga tayanadi, cheklanishlarga deyarli ega bo'lmaydi hamda quyidagi bosqichlardan o'tadi:

Mavjud komponenta turiga vorislik yangi xususiyatlar, metodlar va voqealarni aniqlash yaratilgan komponentani qayd etish.

Qidirish oson bo'lishi uchun Palitra funksional jihatdan o'xshash komponentalarni birlashtiradigan qo'shimcha ilovalar bilan bo'lingan. Tanlab olingan komponentaning kontekst menyusini unga sichqonchaning o'ng tugmasini bosib ochish mumkin.

Standart komponentalar.

TMainMenu

TMainMenu bosh menu buyruqlari panelini va ularga mos keladigan tushib qoladigan menularni yaratadi. Barcha menu buyruqlarining identifikatorlari menuning har qanday konkret buyrug'iga kirish huquqiga ega bo'lgan Items xususiyati bilan aniqlanadi, AutoMerge xususiyati Merge va Unmerge metodlari bilan birgalikda turli shakldagi menularning birlashish jarayonini boshqaradi.

TLabel

TLabel shaklda tahrir qilib bo'lmaydigan statik matnning to'rtburchak sohasini aks ettiradi. Odatda matn boshqa komponenta nomidan iborat bo'ladi. Nom matni Caption xususiyatining qiymatidir. Alignment xususiyati matnni tekislash usulini aniqlaydi. Shrift o'lchami avtomatik tarzda sohaning maksimal to'ldirilishiga mos

kelishi uchun `AutoSize` xususiyatining `true` qiymatini oʻrnating. Kalta soha ichida matnning hammasini koʻrish imkoniga ega boʻlish uchun `WordWrap` xususiyatining `true` qiymatini bering. `Transparent` xususiyatining `true` qiymatini oʻrnatsangiz, boshqa komponentaning bir qismini toʻgʻri uning ustida joylashtirilgan nom orasidan koʻrinib turadigan qilishingiz mumkin.

TEdit

`TEdit` axborot yakka satrining tahrir qilinayotgan kiritishidagi toʻrtburchak sohani shaklda aks ettiradi. Tahrir sohasining ichidagi boshlangʻich narsalarni `Text` xususiyatining qiymati boʻlgan satr aniqlaydi.

`TEdit` komponentasi `TCustomEdit` sinfining toʻgʻridan-toʻgʻri hosilasi boʻlib, uning barcha xususiyatlari, metodlari va voqealariga vorislik qiladi.

TMemo

`TMemo` axborot koʻplab satrining tahrir qilinayotgan kiritishidagi toʻrtburchak sohani shaklda aks ettiradi. Tahrir sohasining ichidagi boshlangʻich narsalarni `Lines` xususiyatining qiymati boʻlgan satrlar massivi aniqlaydi. Ushbu xususiyat qiymati ustunida tugmachani bossangiz, roʻyxat elementlari muharririning darchasi ochiladi. `TMemo` komponentasi `TCustomMemo` sinfining toʻgʻridan-toʻgʻri hosilasi boʻlib, uning barcha xususiyatlari, metodlari va voqealariga vorislik qiladi.

TButton

`TButton` yozuvli toʻrtburchak tugmani yaratadi. Tugmacha bosilganda, dasturda biror bir xatti-harakat nomlanadi (initsiallashtiriladi). Tugmachalar koʻproq dialogli darchalarda qoʻllanadi. `Default` xususiyatining `true` qiymati tomonidan tanlab olingan yashirin tugmacha, dialog darchasida har gal `Enter` klavishi bosilganda, `OnClick` voqea qayta ishlatgichini ishga tushiradi. `Cancel` xususiyatining `true` qiymati tanlab olgan uzish tugmachasi, dialog darchasida har gal `Escape` klavishi bosilganda, `OnClick` voqea qayta ishlatgichini ishga tushiradi. `TVutton` komponentasi `TButtonControl` sinfining hosilasi hisoblanadi.

TCheckBox

`TCheckBox` ikkita holatga hamda tavsifiy matnga ega boʻlgan kvadrat chekboksni yaratadi (bunda tavsifiy matn chekboksning vazifasini spetsifikatsiya qiladi). Boks

holatini bildiruvchi «check» biror bir variantning tanlanishiga mos keladi (boks ustidan tortilgan chiziq bilan belgilanadi) «unchecked» holati esa tanlov olib tashlanishiga mos keladi bunda Checked komponentasining xususiyati mos ravishda o'zgaradi hamda OnSlick voqeasi yuzaga keladi. Tavsifiy matn Caption xususiyatida saqlanadi. AllowGrayed xususiyatining true qiymatini o'rnatib, boksni to'qroq rangli (masalan, kulrang) qilish mumkin. State xususiyati joriy holatni va boks rangini aks ettiradi. TCheckBox komponentasi TButtonControl sinfining hosilasidir.

TRadioButton

TRadioButton ikkita holatga hamda tavsifiy matnga ega bo'lgan yumaloq tugmachani yaratadi (bunda tavsifiy matn yumaloq tugmachaning vazifasini spetsifikatsiya qiladi). Radio-tugmalar bir-birini istisno qiladigan tanlov variantlarining to'plamidan iborat: ya'ni ushbu vaqt daqiqasida faqat bitta tugma tanlab olinishi mumkin (ichki qora doiracha bilan belgilanadi), avval tanlangan tugmadan esa tanlov avtomatik tarzda olinadi. Radiotugma bosilganda, Checked komponentasining xususiyati ham mos ravishda o'zgaradi va OnCkick voqeasi yuzaga keladi. Odatda radio-tugmalar avvaldan shaklda o'rnatilgan konteyner ichigajoylashtiriladi. Agar bitta tugma tanlangan bo'lsa, ushbu guruhga mansub barcha boshqa tugmalarning tanlovlari avtomatik tarzda olib tashlanadi.

TComboBox

TComboBox tahrir sohasi hamda matn variantlarining tushib qoladigan ro'yxati kombinatsiyasini tanlash uchun yaratadi. Text xususiyatining qiymati bevosita tahrir sohasiga kiritib qo'yiladi. Foydalanuvchi tanlab olishi mumkin bo'lgan ro'yxat elementlari Items xususiyatining dasturning bajarilish paytida tanlab olinishi mumkin bo'lgan element raqami ItemIndex xususiyatining, tanlab olingan matnning o'zi esa SelText xususiyatining ichida bo'ladi. SelStart va SelLength xususiyatlari matnning qaysi qismini tanlab olishni belgilab berish yoki matnning qaysi qismi tanlab olinganini bilish imkonini beradi.

TPanel

TPanel boshqa komponentalarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan bo'sh panelni yaratadi. Siz TPanel dan o'z shaklingizda instrumentlar paneli yoki holatlar satrlarini yaratish uchun foydalanishingiz mumkin. TPanel panel komponentasi TCustomPanel sinfining hosilasi bo'lib, uning barcha xususiyatlari, metodlari va voqealari to'liq vorislik qiladi. Windows komponentalari Windows komponentalari sizning dasturingizga Windows ning 12 ta interfeys elementlarining ulanishini amalga oshiradi.

TPageControl

